

UDK: 37.013.3:37.091.33

TALABALARNING MUSTAQIL TA'LIM OLISH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH: TA'SIRI, STRATEGIYALARI VA KELAJAK ISTIQBOLLARI

Mamadaliyeva Nargiza Abdurasulovna

Namangan davlat chet tillari instituti doktoranti

E-mail: nrgzmmdl@gmail.com

Orcid: 0000-0003-2158-6656

890-740-46-86

Annotatsiya. Zamonaviy ta'lim tizimida talabalar mustaqil ta'lim olish qobiliyatini rivojlantirish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada mustaqil ta'lim tushunchasi, uning talabalarning akademik natijalari va umrbod ta'lim (9life-long learning)dagi o'рни, shuningdek, mustaqil ta'lim olishni rivojlantirish strategiyalari va unga ta'sir etuvchi omillar tahlil qilinadi. Mavjud ilmiy adabiyotlar asosida mustaqil ta'lim talabalarda o'zini boshqarish, tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va moslashuvchanlik kabi muhim kompetensiyalarni shakllantirishi aniqlangan. Shu bilan birga, ta'lim tizimidagi cheklovlar va individual farqlar mustaqil o'qishni rivojlantirish jarayonida muayyan muammolarni keltirib chiqaradi.

Kalit so'zlar: mustaqil ta'lim, o'zini boshqarish, kompetensiya, uzluksiz ta'lim (life-long learning), ta'lim texnologiyalari

РАЗВИТИЕ НАВЫКОВ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ У СТУДЕНТОВ: ВОЗДЕЙСТВИЕ, СТРАТЕГИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ НА БУДУЩЕЕ

Аннотация. В современной системе образования развитие у учащихся способности к самостоятельному обучению является одной из важных педагогических задач. В данной статье анализируется концепция самостоятельного обучения, его роль в академической успеваемости и непрерывном образовании учащихся, а также стратегии развития самостоятельного обучения и факторы, влияющие на него. На основе имеющейся научной литературы установлено, что самостоятельное обучение формирует у учащихся важные компетенции, такие как самоорганизация, критическое мышление, решение проблем и гибкость. В то же время ограничения в системе образования и индивидуальные различия создают определенные проблемы в процессе развития самостоятельного обучения. В выводах статьи выделены педагогические подходы и перспективные направления, поддерживающие самостоятельное обучение.

Ключевые слова: самостоятельное обучение, самоорганизация, компетенция, непрерывное образование, образовательные технологии

IMPROVING STUDENTS' INDEPENDENT LEARNING SKILLS: IMPACT, STRATEGIES, AND FUTURE PROSPECTS

Abstract. *In the modern education system, the development of students' ability to learn independently is one of the important pedagogical tasks. This article analyzes the concept of independent learning, its role in students' academic performance and life-long learning, as well as strategies for developing independent learning and factors influencing it. Based on the existing scientific literature, it was found that independent learning forms important competencies in students, such as self-management, critical thinking, problem solving, and flexibility. At the same time, limitations in the education system and individual differences create certain problems in the process of developing independent learning. The conclusions of the article highlight pedagogical approaches and promising directions that support independent learning.*

Keywords: *independent learning, self-management, competence, life-long learning, educational technologies*

KIRISH

Zamonaviy jamiyatda bilimlar hajmining tez sur'atlarda ortib borishi va mehnat bozorining o'zgaruvchanligi ta'lim tizimidan talabalarni faqat tayyor bilimlar bilan qurollantirishni emas, balki ularni mustaqil ta'lim olish, moslashish va o'zini rivojlantirishga tayyorlashni talab qilmoqda. Shu sababli talabalarning mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantirish hozirgi ta'lim islohotlarining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda.

Dunyoda o'qitish jarayonida talabalar avtonomiyasi, bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishda ijodkorona yondashuv, erkin va tanqidiy fikrlash kompetensiyasi, keng qamrovga ega global tarmoqda taqdim etilayotgan ma'lumotlardan samarali foydalanish yuzasidan qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Shu jumladan, rossiyalik olimlar K. D. Ushinskiy, T.J. Ilina, P.I. Pidkasistiylarni qator ilmiy izlanishlari aynan talaba avtonomiyasi va mustaqil bilim olish ko'nikmalarini rivojlantirishga bag'ishlanganini ta'kidlab o'tish zarur.

Mamlakatimizda zamonaviy va uzluksiz ta'limni yanada takomillashtirish va yo'lida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi PQ-5117 qaroriga muvofiq "Aholi orasida ingliz tilini o'rganishni ommalashtirish va ularni mukammal o'zlashtirishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, xorijiy tillarni o'qitishning xalqaro tan olingan dastur va

darsliklarini ta'limning barcha bosqichlarida joriy etilishini muvofiqlashtirish hamda o'quvchilarda zamonaviy o'qitish ko'nikmalarini rivojlantirish" kabi vazifalar belgilangan bo'lib, til o'rganuvchilarni professional bilim-ko'nikmalarini tubdan isloh qilish va rivojlantirish bilan bir qatorda o'qituvchi-talaba usulida auditor o'rganish usulidan farqli o'laroq, mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantirish masalasi ham o'z yechimini kutib turipdi va qator olimlar o'z ilmiy izlanishlarini aynan uzluksiz ta'lim (life-long learning)ga bag'ishlayotgani ham mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarning amaldagi yechimi deb aytsa bo'ladi. Shu jumladan, Sh.Sh. Aripova, D. M. Sarimsoqova, Z.A. Umarova kabilarni sanab o'tish mumkin.

Tadqiqotchilar mustaqil ta'lim olishni talabaning o'z o'quv maqsadlarini belgilashi, o'ziga mos o'rganish strategiyalarini tanlashi, o'quv faoliyatini nazorat qilishi va natijalarni baholashi bilan tavsiflaydi (Zimmerman & Schunk, 2016; Ning Li, 2023).

Ilmiy adabiyotlarda mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini akademik muvaffaqiyat bilan chambarchas bog'liqligi ta'kidlanadi. Mustaqil o'qishga ega bo'lgan talabalar o'quv jarayonida faolroq bo'lib, bilimlarni chuqurroq o'zlashtiradi va o'z ta'lim jarayoniga mas'uliyat bilan yondashadi (Pintrich & Zusho, 2002; Fautch, 2015). Bundan tashqari, mustaqil o'qish talabalarda o'zini boshqarish, tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi, bu esa ularning nafaqat ta'lim jarayonida, balki kelajak kasbiy faoliyatida ham muvaffaqiyatli bo'lishiga xizmat qiladi (Zimmerman, 2018). Shu bilan birga, bir qator tadqiqotlar mustaqil o'qishni rivojlantirish jarayonida muayyan muammolar mavjudligini ko'rsatadi. An'anaviy ta'lim tizimida baholashga yo'naltirilgan yondashuv, o'qituvchiga haddan tashqari tayanish va talabalar o'rtasidagi individual farqlar mustaqil o'rganish ko'nikmalarining yetarlicha shakllanmasligiga olib kelishi mumkin (Ning Li, 2023; Han Lele, 2023). Shu sababli, ta'lim jarayonida o'qituvchining roli bilim beruvchidan ko'ra yo'naltiruvchi va maslahatchi sifatida qayta ko'rib chiqilishi lozim deb ta'kidlanadi.

Raqamli texnologiyalar va onlayn ta'lim resurslarining rivojlanishi mustaqil ta'limni qo'llab-quvvatlovchi muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Tadqiqotlarga ko'ra, raqamli ta'lim muhiti talabalarga individual sur'atda o'rganish, o'z bilimlarini

mustaqil nazorat qilish va global axborot resurslaridan foydalanish imkonini beradi (Dabbagh & Kitsantas, 2012; Cho & Shen, 2013). Jahon iqtisodiy forumi hisobotlarida ham mustaqil o'rganish, moslashuvchanlik va umrbod ta'lim ko'nikmalari (life-long learning) XXI asr kompetensiyalarining asosi sifatida e'tirof etilgan (World Economic Forum, 2020).

Zamonaviy oliy ta'lim tizimi jamiyat va mehnat bozorining o'zgaruvchan ehtiyojlariga moslashgan, mustaqil fikrlay oladigan va o'z ustida doimiy ishlaydigan mutaxassislarni tayyorlashni talab etadi. Shu nuqtai nazardan, mustaqil ta'lim kompetensiyasini rivojlantirish ta'lim jarayonining muhim tarkibiy qismi sifatida qaralmoqda. Tadqiqotlarda ta'kidlanishicha, mustaqil ta'limga yo'naltirilgan yondashuv talabalarning ijodiy fikrlashi, mas'uliyati va kasbiy qarorlar qabul qilish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi (Aripova, 2022).

Shuningdek, mustaqil ta'lim talabalarda vaqtni to'g'ri taqsimlash, shaxsiy mas'uliyatni his qilish va o'quv jarayoniga ongli munosabatda bo'lishni rivojlantiradi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, mustaqil ta'lim elementlari joriy etilgan muhitda talabalar bilimlarni chuqurroq o'zlashtiradi va o'rganilgan materialni amaliy vaziyatlarda samarali qo'llay oladi. Ayniqsa, chet tillarni o'qitish jarayonida mustaqil ta'lim kompetensiyasi talabalarning til materiallarini ongli o'zlashtirishi va kommunikativ faolligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi (Aripova, 2022). Shu bois, mustaqil ta'lim kompetensiyasini rivojlantirish nafaqat talabalarning akademik tayyorgarligini, balki ularning kasbiy va shaxsiy kamolotini ta'minlovchi muhim pedagogik shart sifatida e'tirof etiladi. Ta'lim jarayonida ushbu kompetensiyani shakllantirish metodik va tashkiliy jihatdan puxta rejalashtirilgan yondashuvni talab etadi. Shu nuqtayi nazardan, ushbu maqolaning maqsadi talabalarning mustaqil ta'lim olish qobiliyatiga oid mavjud ilmiy tadqiqotlarni tizimli tahlil qilish, uning ta'lim jarayonidagi ahamiyati, rivojlantirish strategiyalari va kelajakdagi istiqbollarini yoritishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ushbu tadqiqotda tizimli adabiyotlar tahliliga asoslanildi. Tadqiqot jarayonida talabalar mustaqil o'qish qobiliyati, o'zini boshqarib o'rganish (self-regulated learning), akademik natijalar va umrbod ta'lim bilan bog'liq ilmiy

maqolalar tahlil qilindi. Asosiy e'tibor mustaqil o'qish tushunchasining ta'rifi, rivojlantirish strategiyalari, ta'sir etuvchi omillar va ta'lim jarayonidagi samaradorligiga qaratildi (Zimmerman & Schunk, 2016; Ning Li, 2023).

An'anaviy "ta'lim berish" modelidan "ta'lim olish" paradigmasiga o'tish jarayonida talaba bilimlarning passiv iste'molchisi emas, balki ularni faol ravishda tahlil qiluvchi va amaliyotga tatbiq etuvchi subyekt sifatida namoyon bo'ladi. Mustaqil ta'lim jarayonida talabalar o'z bilimlarini rejalashtirish, maqsadli o'rganish va o'z faoliyatini nazorat qilish ko'nikmalarini egallaydi, bu esa ularning ta'lim samaradorligini oshiradi (Aripova, 2022).

Adabiyotlar tanlash jarayonida oliy ta'lim va umumiy ta'lim tizimiga oid nazariy maqolalardan foydalanildi. Manbalar mazmuniy tahlil, solishtirish va umumlashtirish usullari orqali o'rganildi. Ushbu metodologiya mustaqil ta'lim bo'yicha mavjud ilmiy qarashlarni tizimlashtirish va asosiy tendensiyalarni aniqlash imkonini berdi

NATIJALAR

Adabiyotlar tahlili natijalari talabalar mustaqil ta'lim olish qobiliyatining ta'lim olish jarayonida muhim ijobiy ta'sirga ega ekanini ko'rsatdi. Avvalo, mustaqil ta'lim talabalarning akademik natijalarini yaxshilashga xizmat qilishi aniqlangan. Mustaqil o'rganishga jalb etilgan talabalar bilimlarni chuqurroq o'zlashtiradi, o'rganilgan materialni uzoq muddat saqlab qoladi va o'qish jarayonida yuqori faollik namoyon etadi (Fautch, 2015; Ning Li, 2023).

Shuningdek, tadqiqotlar mustaqil ta'lim talabalarda muhim shaxsiy kompetensiyalarni rivojlantirishini ko'rsatadi. Jumladan, o'zini boshqarish, vaqtni rejalashtirish, mustaqil qaror qabul qilish va tanqidiy fikrlash ko'nikmalari mustaqil o'qish jarayonida shakllanadi (Zimmerman, 2018). Bu kompetensiyalar talabalarning kelajakdagi kasbiy faoliyatida moslashuvchan va raqobatbardosh bo'lishiga xizmat qiladi.

Natijalar shuni ham ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalar mustaqil o'qishni rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Onlayn platformalar va raqamli resurslardan foydalanish talabalarni individual sur'atda o'rganishga undaydi va ularning o'quv jarayoniga bo'lgan mas'uliyatini oshiradi (Cho & Shen, 2013; Dabbagh

& Kitsantas, 2012). Shu bilan birga, ayrim tadqiqotlarda ta'lim tizimidagi qat'iy dasturlar va an'anaviy baholash usullari mustaqil o'qishni cheklashi mumkinligi qayd etilgan (Han Lele, 2023).

MUHOKAMALAR

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, talabalar mustaqil o'rganish qobiliyati zamonaviy ta'lim tizimining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Mustaqil ta'lim talabaning bilim olish jarayonida faol subyekt sifatida ishtirok etishini ta'minlaydi va an'anaviy o'qituvchiga yo'naltirilgan modeldan talaba-markazli ta'limga o'tishga yordam beradi (Zimmerman & Schunk, 2016). Biroq adabiyotlar tahlili mustaqil ta'limni rivojlantirish jarayoni murakkab va ko'p omillarga bog'liq ekanini ko'rsatadi. Talabalarning individual farqlari, motivatsiya darajasi va avvalgi ta'lim tajribasi mustaqil o'rganish samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi (Pintrich & Zusho, 2002; Ning Li, 2023). Shu sababli barcha talabalar uchun yagona yondashuv samarali bo'lmasligi mumkin.

O'qituvchining roli ushbu jarayonda muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotlar o'qituvchining yo'naltiruvchi, maslahatchi va motivator sifatidagi faoliyati mustaqil o'qishni muvaffaqiyatli shakllantirishga yordam berishini ko'rsatadi (Dabbagh & Kitsantas, 2012). O'qituvchilar tomonidan beriladigan muntazam fikr-mulohaza va moslashuvchan baholash tizimi talabalarning o'z o'zlashtirish jarayonini tahlil qilish va takomillashtirishga imkon yaratadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, talabalar mustaqil o'qish qobiliyatini rivojlantirish zamonaviy ta'limning eng muhim vazifalaridan biridir. Adabiyotlar tahlili mustaqil ta'lim akademik muvaffaqiyatni oshirishi, shaxsiy va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishi hamda umrbod ta'lim uchun mustahkam asos yaratishini ko'rsatdi (Zimmerman, 2018; World Economic Forum, 2020).

Shu bilan birga, mustaqil ta'limni samarali rivojlantirish uchun ta'lim muhitini moslashtirish, o'qituvchilarning pedagogik yondashuvlarini yangilash va raqamli texnologiyalardan oqilona foydalanish zarur. Kelgusidagi tadqiqotlar mustaqil o'qishni turli ta'lim bosqichlarida rivojlantirish mexanizmlarini va

innovatsion ta'lim texnologiyalarining ta'sirini chuqurroq o'rganishga qaratilishi maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Aripova, Sh. Sh. *Methodological foundations of developing students' independent learning competence in teaching English*. PhD dissertation. Tashkent. 2022
2. Fautch, J. M. Fostering self-directed learning through project-based learning in the classroom. *Journal of Educational Research and Practice*, 5(2), 2015, 160–175.
3. Zimmerman, B. J., & Schunk, D. H. *Self-regulated learning and academic achievement: Theoretical perspectives*. Routledge. 2016
4. Pintrich, P. R., & Zusho, A. The development of academic self-regulation. In *Handbook of self-regulation* 2002 (pp. 249–284). Academic Press.
5. Dabbagh, N., & Kitsantas, A. Personal learning environments and self-regulated learning. *The Internet and Higher Education*, 2012, 15(1), 3–8.
6. Cho, M. H., & Shen, D. Self-regulation in online learning. *Distance Education*, 2013. 34(3), 290–301.
7. Ning Li. Research on the cultivation of students' independent learning ability. *Adult and Higher Education*, 2023, 5(19), 49–54.
8. Han Lele. Research on cultivating students' independent learning ability. *Western Education Science*, 2023, (2), 77–78.
9. Zimmerman, B. J. Investigating self-regulation and motivation. *American Educational Research Journal*, 2018, 55(1), 183–215.
10. World Economic Forum. 2020, *The Future of Jobs Report 2020*.